



## ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA NOVERBAL LISONIY BIRLIKLARNING VOQELANISHI

**Unarova Xafiza Abdumanonovna**

*SamDTU akademik litseyi o'qituvchisi*

[xafizaunarova@gmail.ru](mailto:xafizaunarova@gmail.ru)

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda verbal va noverbal lisoniy birliklarning nutqiy muloqotdagi o'rnini va vazifasi, ularning umumlingvistik mohiyatini aniqlash, uning boshqa turdosh, chegaradosh sohalar bilan munosabatini, uzviy aloqadorligini ta'minlovchi jihatlarni, shuningdek, individual o'ziga xosliklarni ifodalovchi belgi xususiyatlari Abdulla Qahhor hikoyalari misolida yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy nutq, verbal va noverbal lisoniy birliklar, yozuvchi va qahramon nutqi.*

Asrlar davomida insoniyat til vositasida o'zaro fikr almashinish va muloqot jarayonini vujudga keltirishga harakat qilgan va bu orqali jamiyatda ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga zamin yaratilgan. Muloqot jarayonida nafaqat so'zlar vositasidagi axborotni tinglaymiz, balki bir-birimizning ko'zlarimizga qarab, ovoztembri, intonatsiya, mimika, jestlar orqali ham bir-birimizni anglaymiz, o'zaro suhbatlashamiz. So'zlar bizga mantiqiy axborotni uzatsa, harakatlar, mimika, ovoz kabi noverbal birliklar ushbu axborotni to'ldirishga harakat qiladi. O'zbek tilshunosligida ushbu vositalarning o'rganilishi va tadqiqiga doir bir qator ilmiyizlanishlar olib borilgan va turlicha sharhlangan. Jumladan, A.Nurmonov o'zbeklarda substitutiv funksiya bajara oladigan imo-ishoralar har qanday informatsiyani ifodalamaydi; ularning vazifa doirasi nihoyatda cheklangan; asosan, Verbal xabar bilan birga kechuvchi noverbal signallar ularni takrorlashi (ayniqsa tuyg'ularni ifodalaganda), aniqlashtirishi, o'rnini bosishi yoki ulargakundalik og'zaki aralashuv uslubi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlasa [4;27], M.Saidxonov kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma'lum axborotni uzatish vositalaridan bo'lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi loqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozda turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat'iy nazar kommunikatsiyada ikilamchi vosita vazifasini bajarishilga alohida urg'u beradi [5;18].

Verbal xabar bilan birga kechuvchi noverbal signallar ularni takrorlashi

(ayniqsa tuyg'ularni ifodalaganda), aniqlashtirishi, o'rnini bosishi yoki ularga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Noverbal signallar mustaqil ma'noni ifodalash, verbal xabarni to'ldirish, shuningdek, ishtirokchilarni jumlar almashinuv vaqti, kommunikativ akt tugashi, ishonchsizlik yoki noqulaylikning yuzaga kelishi haqida



xabar bilan ta'minlash, verbal muloqot jarayonini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Olimlarning fikricha, noverbal muloqot tilshunoslikning bir qismi sifatida tadqiq etiladi va uning komponentlari sifatida quyidagicha guruhlanadi: paralingvistika (noverbal muloqotning ovoz kodlari); kinesika (imoishora harakatlari); okuleksika (ko'z harakatlari); auskultatsiya (insonlarning ovozhangi); gaptika (inson gavda qismiga teginish suhbat); gastika (oziq-ovqat va ichimliklar belgisi yoki ta'm bilish); olfaksiya (hid bilish orqali muloqot); proksemika (muloqot maydoni); xronemika (muloqot vaqti); sistemologiya (insonni o'rab turgan atrof-tevarak) [3;22].

Noverbal muloqot, odatda, o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Ko'pincha o'z fikrimizni so'zlar ko'rinishida shakllantiramiz, holatimiz, mimikamiz va jestlarimiz ongimizdan tashqarida beixtiyor paydo bo'ladi. Garchi noverbal muloqot ko'pincha ongsiz jarayon bo'lsa-da, bugungi kunda u ancha o'zgartirilgan va kerakli natijaga erishish uchun muvaffaqiyatli nazorat qilinishi mumkin. Noverbal til yordamida o'z hislarimizni ifodalaymiz: muhabbat va nafrat, ustunlik yoki tobelik, hurmat yoki hurmatsizlik. Ichimizda bo'lmagan noverbal signallarni, hislarni atayin uzatish-qiyin, deyarli imkonsiz jarayon. Aynan shuning uchun artistlar suratga olish jarayonlarida obrazga kirishishga va uzatishlari kerak bo'lgan hislarni boshdan kechirishga harakat qiladilar. Inson yuzidagi har bir mushak va chiziqlar nutqiy muloqot jarayonida ma'lum bir vazifani bajarishga xizmat qiladi, ya'ni ichki kechinmalarimizni yaqqol namoyon qila oladi. Masalan, peshonadagi, burun ustidagi, chiziqlar qat'iyatlilik, kurashga tayyorgarlik, qarshilik, o'jarlik; diqqatlilik; harakat, g'azab, jahlni yuzaga keltiruvchi hayajonni fodalasa, ba'zan esa ichki kolliziyani ifodalashga xizmat qiladi. Boshning o'zi ham muloqot jarayonida fikrlarni suhbatdoshga so'zlarsiz yetkazib berish vazifasini bajaradi. Yuz rangining o'zgarishi, oqarishi, qizarishi ham suhbatdoshning ichki kechinmalarini yaqqol ifodalay oladi. Bu kabi noverbal vositalardan unumli foydalanish A.Qahhor ijodining bir qirrasini namoyon etadi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Xotin, rangi oppoq, ko'zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi: – Qo'ying...

Qo'ying...

Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi – bu qadar oqargan!

Ba'zan hayotda shunday holatlar bo'ladiki, inson o'z kechinmalarini, hissiyotlarini tasvirlab berishga ojiz qolganda faqat harakatlar uning quvonch-u izzatlarini, dard-u alamini oshkor qiladi:

Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi.

Shu birgina misol orqali adib o'quvchida "O'g'ri" hikoyasining qahramoni Qobil boboning hayoti, ichki kechinmalari, orzu-umidlari va yashash tarzi haqida taassurot



uyg'otishga muvaffaq bo'lgan va xulosa chiqarishga undaydigan holatni aks ettirgan. Abdulla Qahhorning buyukligi shundaki, u kichik bir hikoyaga katta davr voqealarini singdirishga erishgan, uning har bir personaji o'zining individual noverbal harakatlari orqali o'ziga yuklangan vazifani to'laonli bajarishga erishgan. Asar qahramonini nafaqat tashqi ko'rinish, balki bor ichki olami bilan koz oldingizda yorqin gavdalandira oladi. Bu holatning roman yoki oddiy qissadagi matndan ancha farq qilishi aniq. Muallif matn orqali adresatga qahramonga qo'shib uning atrofidagi olamni ham tilning ifoda imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib yorqin tasvirlab beradi. Yuqoridagi hikoyada keltirilgan aminning harakatlariga e'tibor qaratsak:

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

–Yo'qolmasdan ilgari bormidi?

Qanaqa ho'kiz edi.

E'tibor qiladigan bo'lsak, A. Qahhor ushbu hikoyada aminning har bir harakati orqali o'sha davr amaldorlariga xos bo'lgan oddiy fuqaroga nisbatan hurmatsizlikni o'ziga xos tarzda yoritib bergan va noverbal vositalarni o'z o'rnida qo'llash mahoratini yana bir bor isbotlay olgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, noverbal vositalar ham muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ular ayrim nutq vaziyatlarida so'zlamochi bo'lgan kishining maqsadini oldindan namoyish qilib qo'yishi mumkin, shuning uchun so'zlovchi noverbal vositalar haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bu kabi lisoniy vositalardan unumli foydalanish badiiy asarning ta'sirchanligini oshiradi va yozuvchining ijodiy mahoratini namoyon etishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Qahhor. Anor. G<sub>af</sub>ur G<sub>ul</sub>om nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent –2012.
2. Адабий турлар ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 382 б
3. Kreydlin G. Neverbalnaya semiotika.-M.: novoye literaturnoye obozreniye, 2002.-C.22.
4. Nurmonov A.Tanlangan asarlar. 1-jild.-T.:Akademnashr, 2012.-B.161.
5. Saidxonov M.Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar.-T.:Fan, 2008.-B.3,18.